



“HIDOYA”–BURHONIDDIN MARG’INONIYNING SHOH ASARI

Annotatsiya:

O‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go‘zal Farg‘ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining ulkan namoyondasi Burhoniddin Marg‘inoniy tabbarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e‘zozlab keladi. Yer yuzining sayqali Samarqandda hadis, fiqh, va kalom sohalarida dunyoni lol qoldirgan allomalaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniydir. Movarounnahrda fiqh maktabi tarixida Marg‘inoniylik sulolasining o‘rni beqiyosdir. Nafaqat Movarounnahrda, balki butun Islom olamida fiqh ilmining taraqqiyotiga Marg‘inoniy faqihlar sulolasi ulkan hissa qo‘shgan.

Keywords:

Burhoniddin Marg‘inoniy, Samarqand, Movarounnahr, huquq, falsafa, islom, hidoya, asar, fiqh, ilm, kitob, sulola, mutaxassis, ma‘lumot, masala, musulmon, buyuk.

Information about the authors

Elova Dilnoza

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD)

Sharipova Parizod

Buxoro davlat universiteti talabasi

KIRISH.

O‘rta asrlar Sharqining taraqqiyoti uning dunyo tamaddunidagi munosib o‘rmini belgilab beruvchi olamshumul siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar uyg‘unligi bilan xususiyatlanadi. Sharq Uyg‘onish davri shunday qomusiy olimlarni yuzaga chiqargani ularning jahon madaniyati va ilm-u fanga qo‘shgan hissasi hanuzgacha hayrat bilan e‘tirof etiladi. 2000 yilda tavalludiga hijriy sana bo‘yicha 910 yil to‘lishi keng nishonlanayotgan Burhoniddin Marg‘inoniy ham ana shunday buyuk siymolardan biridir. Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi hayoti davomida anashunday insoniy fazilatlarga amal qilib yashadi. Ilm-u urfon yo‘lidagi kamtarligi o‘z asarlarida ko‘rinib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Maqolada ilmiy merosga boy Burhoniddin Marg‘inoniy haqida fikr yuritilgan. Burhoniddin Marg‘inoniy o‘z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli shakllari, moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslarini, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi va jinoiy ishni ko‘rish masalarini batafsil yoritib berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda Burhoniddin Marg‘inoniy hayoti va ilmiy merosi qisqa qilib aytganda Marg‘inoniy tarixi manbalar asosida o‘rganilib tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday davr har qanday jamiyatda ham olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o'rni beqiyos bo'lgan. O'rta Osiyo faqihlarning har biri o'z ilmiy uslubi va yashagan davri sharoitiga qarab islom huquqi, ayniqsa, hanafiy mazhabi rivoji yo'lida unutilmas xizmatlar qilib, avlodlarga barhayot asarlar qoldirganlar. Ular orasida imom Marg'ioniy yozgan qimmatli huquqiy asar *Ism nasablari* - Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg'oniy ar - Rishdoniy Marg'ioniy, Ul zotni Burxon uddin val milla degan sharaflil nom bilan atashgan. Milla degani olimni ulug'lab, uni musulmon dunyosidagi xalqlar hamda islom dinining dalili, isboti deb madh etishdir [1].

Bu zotning qadriyatlari Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab tiklana bordi. 1991 yilda huquqshunos olim professor Akmal Saidov yurtimizda ilk bor allomaning shoh asari *Hidoyani o'zbek tiliga o'girib tarjima etdi* [1].

Islom olamining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini sunniy oqimidagilar egallagan bo'lishib bu oqimdagi eng yirik mazhab hisoblanmish hanafiya mazhabi huquqshunoslari fiqhshunoslik bobida yetakchi o'rinni egallashganlar [1] Bu mo'tabar allomaning Sharq olamida "Burhoniddin va milla", ya'ni "Din va millatning hujjati" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi[2]. Marg'ioniyning o'lmas merosi "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" deb talgan asari, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinaayotgani albatta bejiz emas[2].

Abdulaziz Marg'ioniy muftiy bo'lib tanilgan oltida o'g'illaridan manbalarda Abdul Hasan Zahiriddin Ali ibn Abdulaziz va Shamsul aimma Mahmud Abu Jandiy zikr etilgan [3]. Uning o'g'li va shogirdi Hasan ibn Ali Zahiruddin al-Kabir laqabi Abul Maxosindir [3]. Burhoniddin Marg'ioniy tug'ilgan vatanlari bugungi O'zbekistondir. Ular Farg'ona vodiysining Rishdon qishlog'ida tavallud topganlar va Marg'ilonning Pirsiddiq mahallasida 13 yil yashaganlar hamda shu yerda o'zlarining mashhur *Hidoya* kitoblarining birinchi qismini yozganlar. Umrlarining so'nngi yillarining Samarqandda o'tkazib, ushbu kitobni hijriy 573 yil zulqa'da oyining 4-kuni(milodiy 1178 yilning aprel oyida) tugal tamomlaganlar. Marg'ioniy deb, buyuk mutafakkiru allomalarimizning ajoyib an'anasi, ya'ni o'z ismi-sharifidan so'ng tug'ilib o'sgan joy nomini qo'shib yozishdek odatlari bilan jahonga kindik to'kilgan yerni Ona Vatanni bildirganlar. Tavallud topgan zaminga, avlod-ajdodlar ruhi pokiga bundan ham ortiq hurmat va e'tibor bo'ladimi?! Bu-olijjanob insoniy xislat, chinakkam Vatanparvarlik namunasidir. Burhoniddin Marg'ioniy dastlab Roshidon, Marg'ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazlaridan mashhur va atoqli allomalardan hadis, tafsir va fiqh ilmini o'rganganlar. Ul zot oliy istedod, o'tkir tafakkur egasi va ilmu fan shaydosi bo'lgan[3]. Marg'ioniy yashagan davr Sharq davr Sharq Uyg'onish davrining jamiyat, madaniyat va fan taraqqiyoti hamda fiqh ilmiga katta zarurat tug'ilgan bir davriga tog'ri kelgan. Fiqh ilmi bo'yicha, u yozgan asarlar, ayniqsa *Hidoya* kitobi, o'sha davrda mavjud hamda katta amaliy ahamiyatga molik bo'lgan ko'plab huquqiy muamolarni yechib berishga qaratilgan. Bu asarlarda adolat tuyg'usi, o'z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan[6]. Hanafiy mazhabining ray va qiyosga tayangani, ya'ni Movarounnahr xalqlari Ichida yoyilib, ularning hayotiga singib ketgan mahalliy urf-odatlardan keng foydalanishlik, Marg'ioniyga o'z malakasini oshirib, islom huquqi falsafasining tub mohiyatini anglash va bu cheksiz sohada erkinlik bilan fikr yuritish uchun, zarur shart-sharoit yaratib bergan.

Sharqda *Hidoya* nomli an'anaviy yozish usuli bo'lgan. Al-*Hidoya* arabcha so'z bo'lib, to'g'ri yo'ldan olib borish-ishonchli qo'llanma ma'nosidadir. Mashhur turk qomusiy olimi Kotib Chalabiy "Kashf az-zunun" asarida berilgan ma'lumotga ko'ra tarixda *Hidoya* nomi bilan bog'liq yigirmadan ortiq asar mavjud. Bu asarlar Falsafa, mantiq, tabiat, ilohiyot, fiqh, fanlari to'g'risida bo'lgan.

Hidoya kitobini yozishda Burhoniddin Marg'ioniy oldida unga qadar turli mualliflar tomonidan yozilgan yuzlab huquqiy majmualar va fatvolarni o'rganish va ular asosida mavjud huquqiy



muammolarning javobini topishdek mushkul vazifa turgan. Ularda minglab masalalar, ayrim muayyan aniq muammolar bo'yicha o'nlab fikru mulohazalar, hatto bir-biriga qarama-qarshi turgan nazariyalar mavjud edi. Islom huquqining asosiy sohalarida turli mazhablar bo'yicha juda ko'p asarlar yozgan yirik fiqh ilmi mutaxassis olimlari qoldirgan son-sanoqsiz kitoblar va to'plamlarni varaqlab chiqib, ularda bildirilgan fikru mulohazalarni bir-biri bilan solishtirib, eng to'g'ri va ma'qul hamda hayotga mos keladigan xulosalarni chiqarish kerak bo'lgan. Burhoniddin Marg'inoniy Hidoya kitobining muqaddimasida bu haqda shunday deb yozgan edi: "...so'ngra tangri tavfiqi yordamida, tanlangan rivoyatlar bilan kuchli aqliy dalillarni birlashtirib, har bir bobda qo'shimcha so'zlarni tark etib, ko'p yozishdan o'zimni saqlagan holda "Hidoya" deb atalgan boshqa bir sharxni yozishni boshladim". Burhoniddin Marg'inoniy butun islom olamida mashhur bo'lgan Hidoya asari 1178-yili Samarqandda yozilgan[7].

Burhoniddin Marg'inoniy Hidoya kitobini yozishda, nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi bo'lganda sahobalar va tobe'inlar, asosiy mazhablarlar asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, jo'g'rofiy va tarixiy joylar, turli toifa qabilalar nomlarini kamoli ehtirom bilan tilga olgan. Muhammad Abdulxay Laqnaviy o'z muqaddimasida "Hidoya"ning birinchi qismida zikr etilgan sahobalar va tobeinlar ismlari 50 dan ko'proq, toifa va urug'lar nomi 12 ta, jug'rofiy va tarixiy joylar nomi 55 ta ekanligini ko'rsatib, ularning har biri haqida qisqacha ma'limot berib o'tgan.

Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobida huquqiy muammolarni yechish jarayonida nafaqat to'rtta asosiy sunniy mazhab (hanafiylik, molikiy, shofeiyy va hanbaliy mazhablari) balki Zohiriyy va Avzo'iy mazhablariga doir fikru mulohazalarini ham, o'rni kelganda ko'rib o'tgan va har biri haqida o'z nuqtai nazarini bildirgan.

Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobini yozishda o'ziga xos qaytarilmas uslub yaratgan. Hidoya kitobida huquqiy masalalarning yechimi dastlab fiqh ilmining yirik olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e'tirozlari yoki qo'shilishlarini izhor etish yo'li bilan berilgan. Ana shunday obro'li faqihlar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan huquqiy masalalarda eng ma'qul yechimni tanlab olish yo'liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltirilgan. Hidoya asarida har bir ibora nihoyat qisqa va muxtasar, hamda, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumalarning har biri alohida o'ziga xos shaklda berilgan. Marg'inoniy ishlatgan iboralar mo'jas, ya'ni qisqa va sermazmun, so'zlar tarkibi puxta va nuqsonsiz bo'lib sunniylikdan uzoqdir. U zarurat bo'lmaganda sinonimlardan foydalanmagan, kerak bo'lmagan ortiqcha qo'shimcha so'zlarni ishlatmagan. Uning yozish uslubi oson-sodda va tushunarli bo'lsada, ammo uningdek qilib yozish nihoyatda mushkuldir.

Marg'inoniy yozgan to'rt jildlik Hidoya kitobi, sunniylik oqimida hanafiy mazhabi bo'yicha, eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan bo'lib, meros huquqidan tashqari, fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan. Burhoniddin Marg'inoniy meros huquqini o'z kitobiga kirgizmaganining sababi shundaki, imom A'zam Abu Hanifa meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni faroiz ilmi deb atagan[3]. Hidoya asarining har bir jildi turli muammolarni huquqiy yechimiga bag'ishlangan.

Birinchi jildi 5 kitobdan iborat bo'lib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro'za, zakot va haj) ga bag'ishlangan.

Ikkinchi jildi nikoh, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yuqolganlar, sherikchilik va vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan.

Uchinchi jildi oldi -sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o'rin olgan.



To'rtinchi jildida esa shafolat, merosni taqsimlash, dehqonchilik hamda bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka so'yiladigan jonzod haqida, umuman qurbonlik qilish, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o'zlashtirish xususida taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan[3].

Hidoya asari hanafiy mazhabi ta'limotini, sharq huquqiy madaniyatini va fiqh ilmi tarixini o'rganishda eng ishonchli manba hisoblanadi. Ushbu asar o'zining amaliy va nazariy ahamiyatiga ko'ra har doim buyuk faqihlar va islom shariati yirik vakillarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Har bir olim unga nisbatan o'z fikru nazarini bildirishga uringan. Hidoya bir necha asrlar davomida ko'plab musulmon mamlakatlarida jumladan Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo'yicha asosiy qo'llanma hisoblangan. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o'rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi.

XULOSA

Yurtimiz allomalarining asarlaridagi g'oyalar insonlarni komillikka, insonparvarlikka va vatanparvarlikka yetaklaydi. Ana shunday allomalardan bo'lmish islom fiqhining rivojlanishiga hissa qo'shgan, faylasuf alloma, buyuk mutafakkir hisoblangan Burhoniddin Marg'inoniydir. Marg'inoniy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr iftixoridir. Burhoniddin Marg'inoniy hayoti tom ma'noda ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir. Buyuk vatandoshimiz kelajak avlodga tengsiz ma'naviy meros qoldirib ketdi. Mening ushbu maqolamda Burhoniddin Marg'inoniyning hayoti va ilmiy merosi bilan birga uning shoh asari bo'lmish "Hidoya"ning islom tarixida tutgan o'rni yoritilgan. Marg'inoniy "Hidoya" asari islom huquqshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va o'chmas iz qoldirgan. Ushbu asar millionlab insonlarning ibodat va o'zaro munosabatlaridagi muammolarni yechimini ko'rsatib, haq ezgulik yo'liga chorlab kelmoqda. Imom Marg'inoniy bobomizning fiqhiy asarini o'qigan har bir kishining hayot yo'li hidoyat ziyosi ila munavvar bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kattayev K. Imom Marg'inoniy va Chokardiza tadqiqotlardagi xatoliklar islohi – Toshkent. 2018. – B 10.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch – Toshkent. 2016 – B 40.
3. Burhoniddin Marg'inoniy Hidoya – Toshkent. 2000. – B 20-45.
4. Abdulaxatov N. G'oziyev T. Burhoniddin Marg'inoniy: tarixiy haqiqat va asotirlar – Toshkent. 2010. – B 15.
5. Buyuk yurt allomalari – Toshkent. 2018. – B 101.
6. Rahimov M. Zamonov A. O'zbekiston tarixi – Toshkent. 2019. – B 114.
7. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi – Toshkent. 2021. – B 479.